

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ISTIQBOLARI

Bayisbayev Javlon Nurlanovich

Yangiyo'l tuman 2 son kasb-hunar maktabi mahsus fan o'qtuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish, chet el sarmoyasini faol jalb etish asosida faqat eksport tovar va xizmat ishlab chiqarish istiqbollari haqida soʻz yuritiladi

KALIT SOʻZLAR: xorijiy investorlar, hissadorlik va kreditorlar, nizo omillari, modernizatsiyalashuv, integratsiya jarayoni

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p jihatdan to'g'ri va asoslangan investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni iqtisodiy muhit shart-sharoitlariga muvofiq rivojlantirish, ularni jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalaridagi faolligini ta'minlash, milliy ishlab chiqarish jarayonining modernizatsiyalashuvi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan har yili amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning kun tartibidagi asosiy masalalaridan biri bo'lib, investitsiyalarni mamlakat milliy iqtisodiyotiga jalb qilish masalasi turibdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonini faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashishini nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbiarmonlarining mamlakatimizga qiziqishini uyg'otmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jalb etmoqda. Ayni damda, xorijiy investitsiya korxonalarini barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish haqida qaror qabul qilish. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining hozirgi kunda iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslariga boy salohiyati e'tiborga olinsa investitsiya siyosati ko'magida erishilgan

yutuqlarga nisbatan, hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan moliyaviy chora tadbirlar ko'p ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Investorlarni jalb etishda ularni eng birinchi o'rinda qiziqtiradigan omillar quyidagilardir: iqtisodiy vaziyat, siyosiy vaziyat, huquqiy soha, geografik o'rin, institutsional tashkiliy texnik soha. Investitsiyadan foydalanishda muhim yo'nalish bo'lib, konkret loyiha va konkret ishlab chiqarish hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, ma'lum bir vaqt birligida butun jamiyatning ixtiyorida bo'lgan investitsiyalarni taqsimlashda ularning ustuvorligi raqobatdan tashqarida qoldi. Bundan shunday natija kelib chiqadiki, ma'lum korxonalar darajasida amalga oshirilayotgan loyihalar, mavjud hududlar rivojlanishi zarur, natijada esa ularning infrastrukturallari kengayishi, rivojlanishi va mukammallashtirishi, ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanishi va mehnat jamoasi ahvoli yaxshilanishi yuz beradi. Investitsiyalarni ko'proq jalb qilish uchun erkin iqtisodiy hududlar yaratilmoqda. Erkin iqtisodiy hudud — mamlakat ichidagi maxsus hudud bo'lib, unda chet el sarmoyasini faol jalb etish asosida faqat eksport tovar va xizmat ishlab chiqarish uchun yuqori samarali zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Iqtisodiyot ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Korxonalar rahbarlarining investitsiyani qaysi manbalar hisobidan moliyalashtirish ustida bosh qotirishlariga zaruriyat paydo bo'lmoqda. Bu esa ko'pgina muhim omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Iqtisodiy omillar (mablag'lar olish imkoniyati va vaqti, soliqlar olinishi hisobi bilan moliyalashtirish manbasining hajmi, investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq daromad miqdori, moliyalashtirish manbasining korxonalar barqarorligi va quvvatliligiga ta'siri va hokazolar) va korxonalar rahbariyati, hissadorlik va kreditorlar manfaatlari o'rtasida vujudga keladigan nizo omillari shular jumlasidandir. Investitsiya faoliyatining rivoji uchun mazkur omillar talilil qilinishi lozim bo'ladi. Bu tahlil mablag'lari yo'nalishining eng maqbul usulini tanlash va kelajakda har bir hududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash imkoniyatini beradi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash lozimki, investitsion siyosatda faqatgina bozor mexanizmiga tayanib ish yuritish mumkin emas. Chunki, u iqtisodiyotning tarmoqlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. A.V.Vahobov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Mo'minov Xorijiy investitsiyalar.Toshkent: "Moliya". 346-b
2. D.G'.G'ozibekov, T.M. Qoraliyev Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. Toshkent: "Iqtisod-moliya". 2011 232-b.
3. «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» davlat korxonasining rasmiy sayti ma'lumotlari. <http://www.deponet.uz>.